

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.M.Qandov	
Turor risqulovning turkistonda milliy davlat qurilishi sohasiga qo'shgan hissasi.....	302
U.J.Mansurov	
Turkistonda mustamlakachilik siyosatiga qarshi jadidchilik harakatining o'ziga xos jihatlari.....	308
M.M.Alimova	
1920-1930 yillardagi kooperatsiya tizimi sistemasi	312
J.Museyibzada	
Improving Uzbekistan's economic cooperation through international organizations.....	315
A.A.Azizov	
Turonning qadimgi o'yinlariga oid ayrim mulohazalar (aqliy o'yinlar misolida)	324
A.T.Ahmedov	
Mustaqil O'zbekistonda kasaba uyushma tashkilotlarining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari	328
D.A.Urinbayeva	
Mustaqillik yillarida yoshlarni harbiy kasbga yo'naltirishda harbiy vatanparvarlik tarbiyasining o'rni.....	334
T.Ch.Xoliyarov	
Makedoniyalik Aleksandr nomi bilan bog'liq shaharlar tarixiy geografiyasi	340
X.X.Mamajonov	
Amir Temur hayoti va davlatchilik faoliyati tarixining usmoniyalar imperiyasi tarixshunosligida o'rganilishiga doir ayrim fikr va mulohazalar	347
I.S.Yusupov	
Mustaqillik yillarida O'zbekistonda pochta aloqa tizimiga raqamli xizmat turlarini joriy qilinish tarixi	351
F.K.Jumanazarova	
Ijtimoiy himoya tizimida xotin-qizlar bandligini ta'minlanishining maqsad va vazifalari hamda amalga oshirish mexanizmlari.....	356
U.X.Gulmatov	
O'zbekiston SSR transporti va uning sovet hukumati iqtisodiyotidagi o'rni	359

ADABIYOTSHUNOSLIK

U.B.Matmurotova	
Badii tarjimada stilistik muvofiqlik - stilistik vositalardan biri o'xhatish misolida.....	364
Sh.A.Safarova	
"Layli va Majnun" dostonining na't bobida an'ana va poetik yangilanish	369
D.I.Nazarova	
Hozirgi aruziy she'rlarda fonetik hamda leksik-stilistik o'zgarishlar	374

TILSHUNOSLIK

A.B.Uralov	
Til sathlarida nomutanosiblik	381
A.Sh.Muxamadiyev	
Properties of expressification of verbal aggression in uzbek and english literature.....	386
Sh.M.Sultonova, S.I.Sodiqova	
Ismlarning qo'llanilish dinamikasi sotsiomadaniy muammo sifatida	393
U.Sh.Turaeva	
Yuridik terminlar tarjimasida sinonimiya tarjima muammosi sifatida.....	398
Y.T.Rakhmonkulova	
A comparative study of kinship aphorisms in english and uzbek languages	401
O.F.Turdaliyev	
"Guliston" asarida somatik birliklarning qo'shma fe'l yasalishidagi roli	405
M.O.Usarova	
Ingliz va o'zbek tillarida salomatlik va kasallikka oid maqollarning semantik xususiyatlari	413
Ч.Х.Чамолов, Ф.Р.Мандонова	
Смыковые нюансы соматических фразеологических единиц в селе хушер	417
B.Q.Nomonov	
Matbaa va qadoqlash sohasi terminlarining leksik struktur tadqiqi.....	426



BADIY TARJIMADA STILISTIK MUVOFIQLIK - STILISTIK VOSITALARDAN BIRI O'XSHATISH MISOLIDA

**СТИЛИСТИЧЕСКОЕ СООТВЕТСТВИЕ В ХУДОЖЕСТВЕННОМ ПЕРЕВОДЕ - ОДНО
ИЗ СТИЛИСТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ НА ПРИМЕРЕ АНАЛОГИИ**

**STYLISTIC CORRESPONDENCE IN LITERARY TRANSLATION IS ONE OF THE
STYLISTIC MEANS BY THE EXAMPLE OF ANALOGY**

Matmurotova Umida Baxtiyor qizi 

Jizzax davlat pedagogika universiteti, Ingliz tili nazariyasi va amaliyoti kafedrasi doktoranti

Annotatsiya

Badiiy matnni boshqa bir tilga tarjima qilish murakkab vazifalardan biri hisoblanib, unda ayniqsa stilistik vositalarni yozuvchining uslubini saqlagan holda uzatish tarjimondan yetarlicha bilim talab etadi. Ushbu maqolaning asosiy vazifalaridan birida badiiy tarjima jarayonida yuz beradigan stilistik muvofiglikni stilistik vositalardan biri o'xshatish misolida tahlil qilindi. Bundan tashqari tarjima jarayonida semantik-stilistik tarsnformatsiya turlaridan biri qo'shish usuli ham tahlil qilingan. Olib borilgan tahlil Jek Londonning "Shimol Oddiseyasi" hikoyasidan olingen parchalarni o'z ichiga oladi. Ushbu hikoya o'zbek tarjimoni F.Abdullayev tomonidan rus tillor orqali o'zbek kitobxonlariga taqdim etilgan. Tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki tarjimada stilistik hodisa tipologiyalaridan jumladan stilistik muvofiglik, stilistik almashtirish, stilistik takomillashtish, stilistik zaiflashuv kabi hodislar uchraydi.

Аннотация

Перевод художественного текста на другой язык считается одной из самых сложных задач, особенно передача стилистических приемов с сохранением стиля писателя требует от переводчика достаточных знаний. Одной из основных задач данной статьи был анализ стилистического соответствия, возникающего в процессе художественного перевода, на примере сравнения, являющегося одним из стилистических приемов. Кроме того, в данной статье раскрывается один из видов семантико-стилистической трансформации, дополнения в процессе перевода. В анализ включены отрывки из рассказа Джека Лондона "Шимол одиссеяси". Эту историю узбекским читателям на русском языке представил узбекский переводчик Ф.Абдуллаев. Результаты анализа показывают, что в типологиях стилистических событий можно увидеть стилистическое соответствие, стилистическую замену, стилистическое усиление и стилистическое ослабление.

Abstract

Translation of a literary text into another language is considered one of the most difficult tasks, especially the transfer of stylistic devices while preserving the writer's style requires sufficient knowledge from the translator. One of the main tasks of this article was to analyse the stylistic correspondence that occurs in the process of literary translation on the example of a simile, which is one of the stylistic devices. In addition, this article reveals one of the types of semantic-stylistic transformation, addition in the translation process. The analysis includes excerpts from the story "Shimol oddiseyasi" by Jack London. This story was presented to Uzbek readers through Russian by the Uzbek translator F.Abdullayev. The results of the analysis show that typologies of stylistic events can be seen stylistic correspondence, stylistic substitution, stylistic amplification and stylistic weakening.

Kalit so'zlar: o'xshatish, stilistik muvofiglik, stilistik takomillashtirish, stilistik almashtirish, stilistik zaiflashuv, badiiy tarjima, transformatsiya, qo'shish.

Ключевые слова: сравнение, стилистическое соответствие, стилистическое усиление стилистическая субSTITУЦИЯ, стилистическое ослабление, художественный перевод, трансформация, дополнение.

Key words: simile, stylistic correspondence, stylistic amplification, stylistic substitution, stylistic weakening, literary translation, transformation, addition.

KIRISH

Badiiy tarjimaning o'ziga xos xususiyatlaridan biri til uslubini tarjima matni o'quvchilar ommasiga ma'lum ta'sir ko'rsatish uchun moslashtirishdan iborat. Bu ta'sirga odatda turli tilshunoslik va stilistik vositalardan, shu jumladan o'xshatishdan foydalanish orqali erishiladi. Nafaqat adabiy asarlarda, balki kundalik suhbatda ham biz hissiy va uslubiy ohanglarni o'z ichiga

ADABIYOTSHUNOSLIK

olgan so'zlardan foydalanamiz. Xalq tili badiiy vositalarga juda boy. Stilistik vositalar to'g'ri ishlatalganda ularning samaradorligi kuchayadi. [2; 296] Badiiy adabiyotda va uning tarjimasida bu vositalarning ahamiyati yanada katta.

Badiiy matnda axborotning ustun turi estetik ta'siri hisoblanganligi bois tarjimada transformatsiyalardan foydalanish va ular yordamida tarjimon asl asar tilining stilistik jilolarini yetkaza olishi muhum bosqichlardan biri hisoblanadi. Asl nuxsalar va tarjimalarni qiyosiy o'rganish ikki til o'rtaсидagi muvofiqlik va nomuvofiqlik holatlarini aniqlash va ular asosida muayyan tarjima usullarini tavsiflash imkonini beradi. Eng tipik stilistik o'zgarishlarni aniqlash badiiy matnning estetik funksiyasini amalga oshirish xususiyatlarini to'liq ko'rsatishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Badiiy matnda stilistik vositalarning o'rni beqiyos va shu jumladan ularning tarjima davomida uzatilishi asliyat matnni, yozuvchining maqsadini to'laqonli ochib berish ham ko'plab izlanishlar olib borishni talab qiladi. Badiiy tarjimani stilistika bilan bog'lab o'rgangan bir necha olimlarimiz bor bo'lib ulardan Jakobson, Boase-Beier, stilistik transformatsiyalar ustida ish olib borgan A.D.Shveyser, L.K.Latishev, L.V.Solonovich hamda asl matnning stilistik hodisalarini ko'rsatish tipologiyasini ishlab chiqqan A.Popovichlarni ko'rsatishimiz mumkin.

A. Popovichga ko'ra asl matnda stilistik hodisalarini ko'rsatish tipologiyasi ya'ni stilistik o'zgarishlarning turlari quyidagilarni o'z ichiga oladi: stilistik muvofiqlik, stilistik almashtirish, stilistik tiplashtirish, stilistik individuallashtirish, stilistik takomillashtirish, stilistik zaiflik, stilistik tekislash va stilistik yo'qotish. [1;48] Ushbu stilistik o'zgarish turlarining ba'zilariga ta'rif berib o'tamiz. *Stilistik muvofiqlik* bu – asl va tarjima matn o'rtaсидida muvofiqlik sodir bo'lganda, ya'ni asl matnning stilistik invariantini adekvat tarzda aks ettirgan holatlarda aytildi. Bunda asl va tarjima matn elementlari stilistik va semantik jihatdan bir biriga mos kelishini bildiradi. *Stilistik almashtirish* tarjimonda dastlabki matnning ayrim tasvirlarini takrorlash uchun tegishli stilistik vositalar mavjud bo'lmagan sodir bo'ladi. Shunday qilib tarjimon ularni o'z tiliga ko'proq mos va tabiiyroq bo'lganlar bilan almashtiradi. A.Popovich tasnifiga ko'ra, *stilistik individualallashtirish* tarjimonning bayt tuzilishini, she'r ritmini yoki obraz yaratish usulini o'zgartirish mumkinligini anglatadi. *Stilistik takomillashtirishda* - tarjimon o'zining metaforalarini, epitetlarini yoki asl matnda ko'zda tutilmagan boshqa uslubiy vositalarni kiritishi mumkin. *Stilistik zaiflashuv* - bu manba matnining ifoda vositalarining "tushib qoldirilishi" va ularni neytral vositalar bilan almashtirish hisoblanadi va bunda bir muncha asl matnning emotivlik xususiyati kamayadi. Komissarovning ta'kidlashicha, tarjimon tarjima matnning ba'zi qismlarida stilistik vositaga duch kelganda uni tarjimada saqlab qolish, tushurib qoldirish va o'rnini to'ldirishi haqida qarorga kelishiga to'g'ri keladi.[5]

A. Popovichning stilistik hodisalar tipologiyasini yuqoridagi turlarga bo'lishi ma'lum bir darajada L.V.Solonovichning semantik-stilistik transformatsiya turlariga yaqin bo'lib: almashtirish (moslashtirish); tushurib qoldirish (neytrallash); qo'shish (kompensatsiya)ni o'z ichiga oladi. [6] Yuqoridagi olimlar tomonidan ishlab chiqilgan transformatsiyalar ham stilistik hodisa tipologiyasi ham badiiy tarjimada matn tahlilini o'tkazishda oldiga bir maqsadni ya'ni asl matning stilistik buyoqdorligiga tarjima matniga qay tarzda uzatilganligini aniqlashda yordam beradi.

Stilistik vositalardan biri bo'lgan o'xshatishlar o'z o'rnida ikki turga bo'linadi: umumxalq yoki turg'un o'xshatishlar; individual muallif o'xshatishlar. Umumxalq yoki turg'un o'xshatishda obyekt, subyekt, o'xshatilayotgan narsa va hodisa orasidagi belgi avvaldan ma'lum bo'lsa, individual muallif o'xshatishlar asosida ko'pchilikka ma'lum bo'lmagan belgi chog'ishtiriladi. Ingliz tilida o'xshatishar quyidagi vositalar orqali: as, like, than amalga oshirilsa, o'zbek tilida xuddi, misoli, go'yo, kabi, -day, -dek qo'shimchalari orqali amalga oshiriladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ushbu maqolada Jek Londonning "Shimol oddiseyasi" hikoyasi tahlil etilgan bo'lib, ushbu hikoya F.Abdullayev tomonidan rus tili orqali o'zbek tiliga tarjima qilingan. Jek London o'z asrinining eng yetuk yozuvchilaridan hisoblanib 16 yillik adabiy faoliyati davomida 19 roman, 18 to'plam, 152 hikoya, 3 pyesa, 8 avtobiografik hamda publisistik xarakterdagи kitob yaratdi. Ushbu yozuvchining har bir ijodi stilistik vositalarga boy juda ta'sirchan qilib yaratilgan. Jek London yaratgan asarlardagi stilistik vositalarni o'zbek kitobxonlariga to'g'ri yetkazib berish tarjimondan katta mahorat talab qiladi.

Stilistik muvofiqlikda asl va tarjima matn o'rtasidagi moslik, o'xshashlik tushuniladi. Misol uchun o'xshatish o'xshatishdek, epitet kabi yoki boshqa stilistik vositalar xuddi shunday tarjima qilinadi va ular o'rtasida muvofiqlik, bir-biriga ma'nio jihatdan yaqinlik bo'ladi. Stilistik muvofiqlik quyidagi misollarda o'z aksini topganini ko'rishimiz mumkin:

1-namuna

"Gee! Gee!" the men cried, each in turn, as their sleds abruptly left the main-trail, heeling over on single runners like luggers on the wind.

[4; 54]

Chanalar izdan chiqib, xuddi shamol kuchi bilan bir tomonga og'ib ketayotgan kema singari qiyshayib, ag'darilay deganda odamlar:

- Hay-hay! – deb baravariga hayhaylashdilar.

[3; 6]

2-namuna

"Don't know — turned me off, somehow, and then shut up like a clam.

[4; 57]

Bilmayman. Gapni shartta kesdi-da, xuddi toshbaqa singari boshini yashirib oldi.

[3; 9]

3-namuna

Palavered around like a crazy man.

[4; 60]

Xuddi jinniga o'xshab allanimlar deb aljiraydi.

[3; 12]

4-namuna

She rested against his great breast like a slender flower against a wall, replying lazily to Malemute Kid's good-natured banter.....

[4; 62]

Endi u erining keng ko'kragiga bosh qo'yib, xuddi devorga chirmashgan nozik guldek dam olar va Meylmut Kidning hazilomus savollariga erinibgina javob berardi.

[3; 14]

5-namuna

As say, the way was long and the trail unpacked. Sometimes, in a day's toil, we made no more than eight miles, or ten, and at night we slept **like dead men**.

[4,82]

Hali aytganimizdek, yo'limiz uzoq va og'ir edi. Itlar yurishi uchun so'qmoq tayyorlaymiz, deb kun bo'yи sakkiz-o'n mildan ortiq yo'l bosolmagan vaqtlarimiz ham bo'ldi, kechalari esa **toshday qotib** uyquga ketardik.

[3;35]

Ushbu parchaning asliyat matnida ko'rishimiz mumkinki, "*like a dead men*" bu o'xshatish hisoblanib uning ma'nosi "*Sleeping so deeply that one appears lifeless and unresponsive*" [8] ya'ni shu qadar shuqur uyqu bo'ladiki odam jonsiz va javobsizdek ko'rinadi. Biz uni so'zma-so'z tarjima qilganimizda "*o'lik singari*" degan birikma hosil bo'lardi. Ammo o'zbek tilida bunday so'zlar qimirlamay qattiq uhlab qolgan odamlarga nisbatan ishlatilmaydi va bundan foydalanish o'zbek madaniyatida qo'pol hisoblanadi. Ammo tarjimon bu yerda stilistik muvofiqlikka erishgan holda shu ma'noni beradigan madaniyatga xos o'xshatish ya'ni "*toshday qotib*" birikmasidan foydalangan va ekvivalentlikka erishgan.

Tarjima matnida stilistik muvofiqlikka erishilgan stilistik vositalardan biri o'xshatishlarni tahlil qilish davomida ekvivalentlikka erishishda xato va kamchiliklar, asliyatdan uzoqlashishlar ham mavjud ekanligiga guvoh bo'lamiz. Quyida berilgan parcha bunga yaqqol misol bo'la oladi.

6-namuna

.....she looked upon me, so, with her black hair flying like a cloud of night and the spray wet on her cheek.

[4; 71]

ADABIYOTSHUNOSLIK

Unga mening yuzimga tikilib qaradi. Uning tuzigan sochlari tun kabi qora, yuzlarida suv tomchilari marjon kabi yaltiraydi.

[3; 23]

Asliyat matnida berilgan “*like a cloud of night*” bu o’xshatishga misol bo’ladi. Ushbu birikmani konteksga qarab tarjima qiladigan bo’lsak, ya’ni “*flying*” so’zini hisobga olib so’zma-so’z tarjima qilinsa “*tun buluti kabi uchib*” degan ma’no kelib chiqadi. Ammo bu birikmani tarjimon “*tun kabi qora*” deya ta’riflagan va “*flying*” so’zini “*uning qora sochlari*” deyishni o’rniga “*uning tuzigan sochlari*” birikmasida ishlatib yozuvchining asl maqsadini yetkazishda e’tiborsizlikka yo’l qo’yligan natijada o’zbekcha tarjimada muallifning bayon uslubi buzilganligini ko’rishimiz mumkin. Muallif aynan uning qora sochini tunda bulutlarning osmondagи harakatiga o’xshatmoqda ammo tarjimada uning ma’no mazmuni o’zgarib ketmoqda.

Tarjima matniga e’tibor qaratadigan bo’lsak, unda yana bir o’xshatish vositasidan foydalilanigan. Ammo bu yerda tarjimonning asosiy maqsadlaridan biri parchaga emotivlik xususiyatlarini qo’shishdir. Tarjimon semantik-stilistik transformatsiya turlaridan biri qo’shish usuli (Solonivish 2016) hamda stilistik takomilashtirish (Papovich 1980) usulidan foydalangan. Asliyatda berilgan ushbu jumlanı “*the spray wet on her cheek*” so’zma-so’z tarjima qilinganda “*suv tomchilari uning yanoqlarini namlantirgan edi*” ma’nosı kelib chiqadi. Ammo tarjimon suv tomchilarini marjonga o’xshatib, konteksda berilgan quyosh shu’lasidan foydalaniб suv tomchilarini marjon kabi yaltiraydi rukuni ostida tarjima qilgan va bu orqali jumlaning jozibadorlik xususiyati oshganligini ko’rishimiz mumkin. Haqiqatdan ham suv tomshilari quyosh shu’lesi ostida xuddi marjon kabi yaltiraydi, shu sababli tarjimon ushbu xabarni kitobxonga yetkazib berish va asar qahramonini jozibador qilib tasvirlashga harakat qilgan. Qo’shimcha stilistik vositadan foydalaniб, asliyatdagı matn ma’nosini kuchaytirgan. Ushbu usul keyingi berilgan parchani ham tahlil qilar ekanmiz tarjimon kitobxonga konkretlashtirgan holda xabarning mazmunini kengroq yoritish maqsadida leksik birliklarni almashtirganligini guvohi bo’lamiz.

7-namuna

And they knocked our masts out of us till we dragged into the wind like a wounded gull;

..... [4; 79]

Machtamizni urib tushurdilar. Kemamiz esa xuddi yaralangan baliqchi qushdek shamolda chayqalib borar edi.

[3; 31]

Asliyat matnda berilgan “*like a wounded gull*” o’zbek tiliga so’zma-so’z tarjima qilinganda “*yaralangan chayka kabi*” degan ma’no kelib chiqar edi, ammo bu ozgina g’arizlik keltirib chiqaradi. “Gull” bu chayka nomli qush turi bo’lib u asosan dengizda tirik mavjudotlar ya’ni baliq, moluskalar bilan oziqlanadi. Tarjimon shu sababdan parcha mazmunini to’liqroq ochib berish, uning emotivlik xususiyatini oshirish maqsadida qush turini nomi bilan tarjima qilishning o’rniga “*xuddi yaralangan baliqchi qushdek*” deb ta’riflaydi va bu yerda tarjimon qushning baliq bilan oziqlanishi va voqealar rivoji dengizda sodir bo’layotganini hisobga olgan va kitobxonga tarjimon maqsadini yetkazib bera olgan.

Ushbu asar rus tili orqali o’zbek tiliga tarjima qilinganligini e’tibordan chetda qoldirmaslik lozim, sababi asliyatdagı muhim stilistik vositalarning rus tarjimoni tomonidan tushurib qoldirilishi yoki o’zgartirilishi, o’zbek tarjimonı tomonidan ushbu kamchiliklarning takrorlanishiga, ayrim hollarda esa yanada qo’polroq xatolarga yo’l qo’ylishiga sabab bo’lgan bo’lishi mumkin. Tarjimonning asosiy vazifasi nafaqat matnning ma’nosini aniq to’liq ifodalash, balki muallifning stilistik uslubini, tilning va matnning ko’chma ma’nodagi so’z iboralarining emotisional xususiyatlari kitobxonga uzatishdan iboratdir. Biroq tarjimon shunday vaziyatlarga duch keladiki, so’zma-s’oz tarjima orqali kitobxonga mavhum tuyulishi mumkin bo’lgan birlikni o’zining uslubi orqali konteksnı hisobga olgan holda tarjima qilishga to’g’ri keladi. Bunday vaziyatlarda albatta asliyat matnining xususiyatlari butkul o’zgartirib yuborilishini oldini olmoq lozim.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, asl matnning ma'nosi va stilistik rang-barangligini buzmasdan tarjimon asar muallifi kabi fikr yuritishi va vositalarni o'rinci tarzda kitobxonga yetkazishi kerak. "Shimol oddiseysi" hikoyasining tarjimasining tahliliga murojaat qilsak, biz ishlatalgan deb aytishimiz mumkin bo'lgan usullar stilistik muvofiqlik, stilistik almashtirish, stilistik takomillashtirish hisoblanadi. Undan tashqari biz ba'zi holatlarda stilistik zaiflashuv misollariga ham duch kelamiz. O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, tarjimonning ekvivalentlikka erishgan hamda asliyatdan uzoqlashgan holatlari ham yo'q emas. Shunday ekan tarjima jarayonida ayniqsa badiy tarjimada juda ehtiyyotkor bo'lmosg'imiz, asliyat matning asl ma'nosini ochib bermosg'imiz lozim.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. A.Попович Проблемы художественного перевода, М., 1980, с.112-137
2. Allakov J. Edebiyat yImyna giriş. Ashgabat, 2010.
3. Jek London (2019) "Shimol hikoyalari" F.Abdullahayev tarjimasi "Ziyo nashr" Toshkent 2019 p.128
4. Jack London (1899-1918) "To Build a Fire" And Other Stories Copyright c 2003 by Global Language
5. Комиссаров В., Л.Кораллова Практикум по переводу с английского языка на русский, М., 1990, с.115
6. Solonovich, L. V. (2016). *Semantiko-stilisticheskiye transformatsii v khudozhestvennom tekste: sopostavitelno-tipologicheskiy aspekt (na materiale nemetskikh i russkikh perevodov)*: avtoreferat dissertatsii ... kandidata filologicheskikh nauk: 10.02.20. Minsk. (In Russ.).
7. U.Matmurotova "Badiiy adabiyot tarjimada stilistik tahlil elementlari" Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi: ilmiy jurnal.-№5/4 (114), Xorazm Ma'mun akademiyasi, 2024 y. – 531 b.
8. <https://phrasesdirectory.com/similes-for-sleep/>